

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI

TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA INSTITUTI

---



“AXBOROT TEXNOLOGIYALARI” KAFEDRASI

# Excel

dasturida amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha

**USLUBIY KO'RSATMA**

**(MS Excel - 2010 UCHUN)**

Toshkent – 2015

***Ushbu uslubiy ko'rsatma institut ilmiy-metodik kengashining 1 iyul 2015  
yil9-sonli yig'ilishida ko'rib chiqildi va chop etishga ruxsat etildi.***

Ushbu uslubiy ko'rsatma «Informatika va AT» fanidan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun mo'ljallangan. Unda guruh mavzusiga tegishli nazariy ma'lumotlar, amaliy topshiriqlardan iborat algoritmik ketma-ketlik hamda mustaqil bajarish ushuni topshiriqlar berilgan. Shuningdek, bilimlarni nazorat qilish uchun muammoli savollar va uy vazifasi uchun namunaviy topshiriqlar tavsiya etilgan. Uslubiy ko'rsatmadan informatika fani o'qituvchilari va fanni mustaqil o'rganuvchilar foydalanishi mumkin.

*Tuzuvchilar:*

*Z.S.Abdullaev, f-m.f.n., dots.  
S.S.Mirzaev, f-m.f.n., dots.  
B.Raxmankulova, i.f.n., dots.  
S.P.Mavlanov, must. tadqiqotchi ass.*

*Taqrizchilar:*

*M.Yakubov, prof. TATU  
B.Xudoyorov, t.f.n., prof*

## KIRISH

Ko'pincha ma'lumotlarni qayta ishlashda ularni jadval ko'rinishda tasvirlashga to'g'ri keladi. Jadvali ma'lumotlarni saqlash bilan birga ularni qayta ishlash ham mumkin. Jadval satr va ustunlardan tashkil topadi. Ma'lumotlar ustun va satrlar kesishmasidan hosil bo'lgan yacheykalar(katakchalar)ga yoziladi. Bu holda jadvalning bir qism yacheykalari oldindan berilgan ma'lumotlar bilan, boshqa qism yacheykalari esa oldindan ma'lum bo'lgan ma'lumotlar ustida bajarilgan turli xil arifmetik va boshqa amallar natijasida to'ldiriladi.

Jadval ko'rinishdagi ma'lumotlarni qayta ishlash uchun maxsus dasturlar paketi, ya'ni elektron jadvallar yoki elektron protsessorlar ishlab chiqilgan. Elektron jadvallar asosan iqtisodiy xarakterga ega bo'lgan masalalarni yechish uchun mo'ljallangan. Lekin elektron jadvallar yordamida boshqa masalalarni masalan formulalar bo'yicha hisoblashlar bajarish, tenglama, tenglamalar sistemasini yechish, matritsalar ustida amallar bajarish, grafikli bog'lanishni qurish, funksiya grafiklarini chizish va hokazolarni ham bajarish mumkin. Elektron jadvallarda ishlashni o'rganish masalani dasturlovchi yordamisiz yechishni amalga oshirish imkonini beradi. Elektron jadvallar shaxsiy kompyuterlarda asosan 1980 yildan keyin qo'llanila boshlagan. Dastlab, asosan Lotus 1-2-3 elektron jadvali qo'llanilgan. Keyinchalik kompyuterlarda Super Cals elektron jadvali qo'llanilgan. Hozirgi vaqtda zamonaviy kompyuterlarda ancha takomillashgan elektron jadvallar qo'llanilmoqda, xususan Microsoft Excel.

Uslubiy ko'rsatmada Microsoft Excel dasturi haqida nazariy ma'lumotlar laboratoriya ya amaliy mashg'ulotlarni bajarish namunalari va topshiriqlar variantlari keltirilgan. Uslubiy ko'rsatmada jadvallar bilan ishlash, Excel funksiyalari bilan ishlash, funksiyaning grafigini chizish, tenglama va tenglamalar sistemasini yechish, diagrammalar tuzish namunalari berilgan. Uslubiy ko'rsatmada 8 ta mavzu bo'yicha Excel dasturida ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha ma'lumot keltirilgan. Laboratoriya yoki amaliy mashg'ulot mavzusi ta'lim yo'nalishiga necha soat ajratilganligiga qarab tanlanadi. Qolgan ishlar esa talabalarga mustaqil ish sifatida berilishi mumkin.

Excel Microsoft Office paketi tarkibidagi dastur bo'lib, u Windows operatsion tizimi boshqaruvida ishlovchi hamda ma'lumotli elektron jadvallarni tayyorlash va qayta ishlashga mo'ljallangan.